


“Meros” jurnali



“**Meros**” jurnalining muassisi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hisoblanadi. Jurnal dastlab O‘zR FA Prezidiumining 1988 yil 30 avgustdagi qarori (№11/105) asosida almanax sifatida “Sharqshunoslik” nomi bilan tashkil etilgan va 1991-2014 yillarda uning 17 ta soni nashr qilingan.

2016 yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalari markazining “Meros” jurnali, 16.02.2018 yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Meros” jurnali sifatida qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan. (guvohnoma №0680 va № 000535; ISSN № 2181-9017).

“Meros” ilmiy-nazariy jurnali bir yilda 2 marta nashr etiladi.

Maqolalar: o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi mumkin. Jurnalning minimal hajmi 8-15 bosma taboq, ya’ni 128-240 sahifa. Umumiy tiraji 100-500 adadgacha nashr etilishi rejalashtirilgan.

“**Meros**” ijtimoiy fanlararo xarakterdagi ilmiy jurnal bo‘lib, sharqshunoslik sohasining yangi yutuqlarini targ‘ib etuvchi ilmiy-nazariy nashrdir. Unda O‘zbekistonning ilmiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga, sharqshunoslik, xususan, Markaziy Osiyo va Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixi, fan tarixi, tili va adabiyoti, falsafasi, siyosati, madaniyati va san’atiga oid yozma va ashyoviy manbalar tadqiqi hamda zamonaviy masalalarning dolzarb mavzularidagi maqolalar nashrga tayyorlanib, quyidagi ruknlar doirasida e’lon qilinadi:

1. Axborotlar
2. Bahs
3. Diplomatiya tarixidan
4. Yoshlar minbari
5. Zamonaviy masalalar
6. Ilmiy anjumanlar va taqrizlar
7. Ilmiy axborot
8. Ilmiy safar axboroti

9. Islom va tasavvuf
10. Manbashunoslik va tarixshunoslik
11. Markaziy Osiyo tarixi
12. Matnshunoslik
13. Personaliy
14. Til va adabiyot
15. Falsafa
16. Fan va madaniyat tarixi
17. Xalqaro munosabatlar
18. Xotira
19. Hujjatlar va yozishmalar
20. Yubilarlarimiz
21. Yangi nashrlar kabi ruknlarida jami

Nashrning tili: o'zbek, rus, ingliz.

Jurnalning maqsad va vazifasi. Sharqshunoslik yo'nalishidagi yangi tadqiqotlar, erishilgan yutuq va ilmiy yangiliklar bilan ilmiy xodim, mutaxassis, magistr, doktorant va olimlar kabi ijtimoiy-gumanitar soha vakillarini tanishtirish.

Ixtisoslashuvi: ilmiy-nazariy.

Tarqatiladigan hududi: O'zbekiston Respublikasi bo'yicha

Tahririyatning moliyaviy ta'minot manbalari: homiylar (agar bo'lsa), mualliflar hisobidan.

Bosh muharrir



Abduxalimov Baxrom Abduraximovich

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori, O'zRFA Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi bo'yicha vitse-prezidenti (2017 yildan hozirgacha)

Ilmiy daraja va unvoni: Tarix fanlari doktori, professor

Sohasi: Tarixiy manbashunoslik va fan tarixi.

Tug'ilgan yili: 27 fevral 1959 y.

Tug'ilgan joyi: Toshkent shahri

Ma'lumoti: Oliy, 1982 yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (kunduzgi)ni tamomlagan

Diplom bo'yicha mutaxassisligi: Filolog-sharqshunos, Doktoranturada o'qigan, Liviyada arab tili tarjimoni, O'zRFA Sharqshunoslik institutidagi ish faoliyatini kichik ilmiy xodim vazifasidan boshlab, ilmiy kotib, katta va yetakchi ilmiy xodim, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari va direktor, Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi vitse-prezidenti lavozimlariga ko'tarilgan. Ayni paytda u Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti prorektori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining millatlararo munosabatlar masalalari va din ishlari bo'yicha Davlat maslahatchisi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ilim-fan tarmoqlari bo'yicha ilmiy-texnik dasturlar shakllantirishini muvofiqlashtirish va amalga oshirilishi monitoringini olib borish bo'limi boshlig'i lavozimlarida ham ishlagan. Hozirda O'zRFA ijtimoiy fanlar vitse-prezidenti hamda O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori lavozimlarida faoliyat yuritmoqda

1 ta monografiya, 1 risola, 2 ta kitob (hammualliflikda) va 80 dan ortiq maqolalar muallifi.

Hozirga qadar uning rahbarligida 1 ta fan nomzodi, 1 ta falsafa fanlari bo'yicha PhD himoya qilgan, 1 doktorant va 3 tadqiqotchi o'z dissertatsiyalari ustida ish olib bormoqda.

Hammualiflikda tayyorlagan **"Xorazm Ma'mun akademiyasi"** (Quvayt, 2006) nomli risola uchun Kuvaytning **"Imom Buxoriy avlodlariga"** nomli mukofoti bilan taqdirlangan.

Manzil: 100170, O'zbekiston, Toshkent sh, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 79-uy

Telefon: (+998-71) 262-54-61

Faks: (+998-71) 262-52-77

E-mail: beruni1@uznet.uz

Sayt: <http://www.beruni.uz>

Maqolalarni qabul qilish qoidalari